

ma'muriyatining operatorlariga radioxalaqitlar paydo bo'lishining oldini olish bo'yicha choralar ko'rish.

2.11. Radioaloqadan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya qilish.

2.12. Jizzax viloyati EMMX tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun taqdim etilgan hisob-varaqa fakturaga muvofiq o'z vaqtida (10 kundan kechiktirmay) to'lovlarni amalga oshirish.

2.13. Jizzax viloyati EMMX ga hisob-kitoblarni o'tkazish va tegishli ruxsatnomalarni taqdim etish uchun zarur bo'lgan barcha kerakli hujjatlar va materiallarni taqdim etish.

2.14. Jizzax viloyati EMMX ga Xalqaro elektroaloqa ittifoqida (XEI) radiochastota taqdimotlarini, radioelektron vositalar va radioaloqa tizimlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza berish maqsadida barcha kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni, shuningdek muvofiqlashtirish zonalarini aniqlash bo'yicha amalga oshirilgan hisob-kitoblarni taqdim etish.

2.15. REVdan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnomalarni muddatini uzaytirishda, Jizzax viloyati "EMMX" ga avvalgi davrdagi ruxsatnomalarni taqdim etish.

2.16. Texnik nazorat doirasida Foydalanuvchi tomonidan ishlatilayotgan REVga Jizzax viloyati "EMMX" ning mansabdor shaxslarini to'siqsiz kirishni ta'minlash.

2.17. REV xavfsizligini ta'minlash.

2.18. Foydalanuvchi ishlatayotgan REVLar, televizion va radioeshittirish dasturlarini qabul qilishga va boshqa REVLarga radioxalaqit manbai Foydalanuvchi o'zining REVi bo'lsa, uni bartaraf etishda Jizzax viloyati EMMX tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash.

2.19. Foydaluvchining REV va radioaloqa tizimlari, xorijiy davlat aloqa ma'muriyati va alohida radio operatorlari faoliyatiga xalaqitli ta'sir hosil qilganda, ushbu masalalarni hal qilish uchun Jizzax viloyati "EMMX" tomonidan sarflangan xarajatlarni qoplash.

2.20. Jizzax viloyati EMMX tomonidan yuborilgan tavsiyalarga (shu jumladan texnik tavsiyalarga) amal qilish.

2.21. Agar Litsenziyalovchi organ foydalanuvchiga telekommunikatsiya sohasidagi faoliyat turi uchun berilgan Litsenziyani to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilsa, radioelektron vositalarning ishlashini to'xtatishni ta'minlash.

2.22. Radiochastotadan foydalanish to'xtatilganda yoki REV faoliyatiga berilgan litsenziyani va REVning ishlashiga berilgan ruxsatnomalar bekor qilingan taqdirda, REV faoliyati tugatilgandan so'ng, 10 kun muddat ichida Jizzax viloyati EMMXga REVni demontaj qilinganligi yoki saqlashga berilgani haqida Dalolatnoma nusxasini taqdim etadi, xamda foydalanish uchun berilgan ruxsatnomani qaytaradi.

3. Tomonlarning huquqlar

Jizzax viloyati EMMX huquqlari:

3.1. Foydalanilayotgan REVning ustidan texnik nazoratni olib borish.

3.2. REVLardan foydalanish tartibiga rioya qilmaslik, radioxalaqitlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar bajarilmasligi, radioaloqadan foydalanish qoidalari buzilishi, hamda amaldagi radionurlanish parametrlari standartlariga mos kelmagan hollarda, REVLardan foydalanishni taqiqlash.

3.3. Foydalanuvchiga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish.

3.4. Litsenziya beruvchi organ Foydalanuvchiga telekommunikatsiya sohasidagi faoliyat turi uchun bergan Litsenziyani to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, taqdim etilgan radiochastota va REVLardan foydalanishga berilgan ruxsatnomalarni to'xtatish yoki bekor qilish.

3.5. Quyidagi hollarda REVLardan foydalanishga berilgan ruxsatnomalar bekor qilinishi mumkin:

- ruxsat berilgan kundan boshlab 6 oy ichida taqdim etilgan radiochastotalardan foydalanmaslik;

- Jizzax viloyati EMMX tarif to'lovlarini to'lash uchun, shuningdek radiochastota spektridan foydalanganlik uchun foydalanuvchida mavjud bo'lgan muddati o'tgan debitorlik qarzlari mavjud bo'lsa;

- Foydalanuvchi tomonidan REVLarni ro'yxatdan o'tkazish va undan foydalanishning belgilangan tartibini qo'pol ravishda buzgan hollarda.